

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

BAYRIEVA MARYAM JANGABAEVNA

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDA EMOTIVLIK
KATEGORIYASINING METAFORIK VOQELANISHI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus– 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Bayrieva Maryam Jangabaevna

Ingliz va qoraqalpoq tillarida emotivlik kategoriyasining metaforik voqelanishi..... 3

Байриева Мариям Жангабаевна

Метафорическая репрезентация категории эмоциональности в английском и каракалпакском языках..... 25

Bayrieva Maryam Jangabaevna

Metaphorical representation of the category of emotionality in English and Karakalpak languages..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 55

HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

BAYRIEVA MARYAM JANGABAEVNA

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDA EMOTIVLIK
KATEGORIYASINING METAFORIK VOQELANISHI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3131 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kdirbaeva Gulzira Kurbanbaevna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Kuldashv Akromjon Mahmudovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Sifo Saydullaevna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 raqamli Ilmiy kengashning «13» oktyabr 2025-yil soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25; faks: (99861) 223-59-25, e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (077 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «2» oktyabr kuni tarqatildi.
(2025 yil «2» oktyabr dagi № 20 raqamli) reestr bayonnomasi).



M.S.Kudaybergenov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

J.E.Seytjanov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kombi-filologiya fanlari nomzodi, professor

G.A.Kurbaniyazov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori
(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon zamonaviy filologiyasida insonning emotsional tajribasini lingvistik vositalar orqali ifodalash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Psixolingvistika, kognitiv lingvistika va diskursiv tadqiqotlar doirasida emotsional birliklarning tilda aks etishi, ularning konseptual asoslari, fonetik, leksik va sintaktik voqelanishi xalqaro miqyosda faol o'rganilmoqda. Shu bilan birga ingliz tilidagi badiiy matnlar, xususan, V. Shekspir, J. Ostin, E. Bronte kabi yozuvchilar asarlarida emotsional metaforalar va ekspressiv birliklar psixologik munosabatlar bilan birga o'rganilayotgani ushbu mavzuning dolzarbligi kasb etmoqda. G.Lakoff va M.Johnsonning konseptual metafora nazariyasi, V.I. Shaxovskiy, O.E. Filimonova, A.D. Momot kabi olimlarning ishlarida emotsiyalarning kognitiv va stilistik ifodasi tildagi semantik tizim bilan bog'liq holda tahlil qilinmoqda. Emotiv birliklarni o'rganish insonning til imkoniyatidagi universal xususiyatlariga aniqlik kiritadi, uning tuzilishi va faoliyatidagi madaniy o'ziga xosliklari hamda farqlarini tadqiq qilish mumkin. Bundan tashqari, turli fanlarda hissiyotlarning tabiatini o'rganishga qiziqish davom etmoqda. Shuningdek, hozirgi vaqtda kognitiv jarayonlarni o'rganishga assotsiativ metod qo'llash olimlarning juda keng qiziqishlariga turtki bo'lmoqda.

Dunyo xalqlari o'rtasidagi til va madaniyatlararo aloqa tobora kengayib borayotgan hozirgi globallashuv davrida emotsional birliklarning tarjima va madaniy kodlar bilan mustahkam bog'liqligi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ingliz va qoraqalpoq tillarida emotsional mazmunning qay tarzda ifodalanishi, ularning metaforik modellar orqali qanday ajralishi turli madaniyatlarning dunyoqarashini ochib bermoqda. Ayniqsa, emotsiyalarning milliy madaniyatdagi kodlangan shakllari xalqaro aloqalarda kommunikativ xatolarga olib kelishi mumkinligi sababli, bu turdagi lingvomadaniy tadqiqotlar zarur hisoblanadi. Bu esa, mavzuning tarjimashunoslik, sotsiolingvistika va madaniyatlararo kommunikatsiya kontekstida ham dolzarbligidan dalolat beradi. Bugungi kunda UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar madaniyatlararo aloqani chuqurlashtirishda tilning semantik va emotsional qatlamlarini tahlil qilishni taklif etmoqda.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston fan maydonida tilning emotsional qatlamini lingvistik, psixolingvistik, stilistik va madaniy nuqtayi nazardan chuqur o'rganish hozirgi vaqtda yetarli darajada keng qamrovli ilmiy ish olib borilmayotgan sohaga hisoblanadi¹. Xususan, qoraqalpoq tilida emotsional birliklar, metaforalar, undov so'zlar, interjeksiyalar va ularning kognitiv asoslari haqida alohida tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ularni ingliz tili bilan chog'ishtirgan holda kompleks lingvomadaniy va diskursiv tahlil qilish masalasi hanuzgacha ochiq qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ushbu dissertatsiya mamlakatimiz tilshunosligida yangi yo'nalishni ochib berishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, til va ong, til va madaniyat munosabatlarining lingvistik tahlili masalasiga hozirgi o'zgaruvchan ijtimoiy muloqot sharoitlarida dolzarb ilmiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur ishdagi tadqiqot faqat hissiy birliklar bilan bog'liq bo'lib, psixologiya, fiziologiya va boshqa

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.10.2019 yildagi PF-5850 son

sohalarning masalalarini to'ldiribgina qolmay, bunda his-tuyg'ularning tabiatiga yanada chuqurroq e'tibor qaratishga imkon beradigan leksik birliklar, ya'ni emotiv birliklarni o'rganishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020–2030-yillarga mo'ljallangan "Ilmiy faoliyatni rivojlantirish strategiyasi" hamda Prezident farmonlarida filologiyada madaniy qadriyatlar, milliy ong va zamonaviy lingvistik texnologiyalar uyg'unligini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Xususan, 2022-yil 12-maydagi PF-143-sonli Prezident Farmonida madaniyatlararo aloqani chuqurlashtirish, til va madaniyat integratsiyasiga e'tibor qaratish, xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuvni kuchaytirish zarurligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, Oliy ta'lim va fan sohasidagi davlat dasturlarida milliy til materiallarini xorijiy tillar bilan qiyosiy o'rganish, kognitiv va madaniy ongni til yordamida tahlil qilish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Binobarin, mazkur mavzu nafaqat ilmiy, balki davlat siyosati darajasida ham dolzarb ekani tasdiqlangan.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Zamonaviy tilshunoslik sohasida emotsional birliklarning tildagi ifodasi keng qamrovli tadqiqot obyektiga yo'naltirilgan bo'lib, u kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalingvistika va diskursiv metod doirasida faol o'rganilmoqda. Xususan, G.Lakoff va M.Jonson²(1980) tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi emotsiyalarni anglash va verbal ifodalashda asosiy metodologik asosga aylangan. O.E. Filimonova³ tomonidan ingliz tilidagi W.Shekspir sonetlari asosida olib borilgan tadqiqotlarda emotsiyalarning ekspressiv va implitsit ifoda shakllari chuqur tahlil qilingan. Shu bilan birga, T. Wharton, D. Evans, A.Wierzbicka⁴ kabi olimlar emotsional birliklarning semantik, stilistik va madaniy aspektlarini o'rganib, ularning kognitiv asoslarini aniqlagan. Mazkur tadqiqotlar ingliz tilida emotiv birliklarning leksik, sintaktik, metaforik va diskursiv darajalardagi realizatsiyasi bo'yicha muhim nazariy manbalar hisoblanadi.

MDH mamlakatlari filologiya fanida ham emotsional birliklar masalasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab izchil o'rganila boshladi. V.I. Shaxovskiy⁵ emotsional konnotatsiyaga ega bo'lgan birliklarning semantik va psixolingvistik tabiati haqida atroflicha tadqiqotlar olib borgan. V.A. Maslova⁶ emotsional

² Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press. 256 ISBN: 978-0-226-46801-3

³ Филимонова О. Е. Язык эмоций в английском тексте (когнитивный и коммуникативный аспекты). — СПб.: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2001. — 256 с.

⁴ Wharton, Tim. *Pragmatics and Emotion*. Cambridge: Cambridge University Press, 2023. – С. 78. Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. М., 1999. С. 611.

⁵ Шаховский В. И. Категоризация эмоций в лексико-семантической системе языка. — Воронеж: Изд-во Воронежского университета, 1987. — 198 с.

⁶ Маслова Ю. С. Введение в языкознание. М., 1998. – С. 128.

birliklarning inson ongiga ta'siri va eslab qolishdagi rolini tahlil qilib, ijobiy va salbiy emotsiyalar ongda qanday aks etishiga ta'rif bergan. A.D. Momot⁷ tomonidan metaforalar yordamida emotsiyalarning konseptualizatsiyasi va miyaning semantik strukturalar asosidagi ishlashi tahlil qilingan. Shu bilan birga, rus filologlaridan V.V. Vinogradov, A.M. Efimova, N.A. Lukyanova, E.M. Galkina-Fedoruk⁸ kabi olimlar ekspressivlik va emotsionallik masalalarini til birliklari kontekstida tadqiq qilgan. Ularning ishlari bugungi kunda o'zbek, qoraqalpoq, qozoq va boshqa turkiy tillar bilan qiyosiy o'rganish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston, xususan, Qoraqalpog'iston filologiyasida emotsional birliklarning o'rganilishi so'nggi yillarda birmuncha rivojlanib kelmoqda. Professor E.Berdimuratov va A.Bekbergenov⁹ tomonidan qoraqalpoq tilidagi emotsional birliklarning ayrim leksik va grammatik xususiyatlari filologiyaning umumiy yondashuvi doirasida o'rganilgan. Qoraqalpoq tilida interjektsiyalar, lug'aviy birliklar, emotsional metaforalar ustida alohida tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ularni boshqa tillar bilan qiyoslagan holda lingvomadaniy va diskursiv usulda o'rganishga oid tadqiqotlar hozirgi vaqtda yetarli emas. Shu bilan birga, o'zbek tilshunoslaridan Sh.Asqarova, B.Yo'ldoshev, G.Hakimova, A.Mamatov, R.Rahmatullayev, B.Boltayeva¹⁰ kabi olimlar tomonidan ekspressiv, stilistika va frazeologiya doirasida ma'lum darajada tadqiqotlar olib borilgan. Biroq ingliz va qoraqalpoq tillarida emotsional birliklarning lingvomadaniy, sintaktik, metaforik jihatdan kompleks chog'ishtirma tahlili asosidagi tadqiqotlar ilk bor ushbu dissertatsiyada tizimli tarzda olib borilmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetining "Qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik masalalari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va qoraqalpoq tillarida emotsional mazmuni ifodalovchi birliklar tarkibini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

ingliz va qoraqalpoq tillarida his-tuyg'ularning leksik ifodalanish usullarini aniqlash;

⁷ Момот А. Д. Когнитивно-семантический анализ понятия love в сонетах У. Шекспира: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — СПб., 2012. — 28 с.

⁸ Лукьянова Н. А. Экспрессивная лексика разговорного употребления // Проблемы семантики. — Новосибирск: Наука, 1986. — 228 с. Галкина-Федорук Е. И. Об экспрессивности и эмоциональности в языке. — М.: Изд-во МГУ, [б. г.]. — С. 194.

⁹ Бердимуратов Е. Қарақалпақ тилиниң лексикологиясы ю-Нөкис . Бекбергенов А. Қарақалпақ тилиниң стилистикасы. — Нөкис: Қарақалпақстан, 1990. — 34 с.

¹⁰ Асқарова Ш. инглиз ва ўзбек тилларида такрор ифода воситасининг турлари//ўзбекистонда хорижий тиллар. № 2/2014. - Б. 18-22. Йўлдошев Б. Стилистический анализ узбекской художественной прозы. - Ташкент, 1989. - 136 б.

Умарова З. ў. Фраземаларнинг лингвомаданий тадқиқи (Турли системадаги тиллар мисолида) //Research Focus. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 265-268.

Маматов А. Э. Ўзбек тили фразеологияси //Тошкент:“Наврўз. – 2019. – Т. 5.

Рахматуллаев Ш. Нуткимиз кўрки. -Тошкент: Фан. 1970. 59 б.

Йўлдошев Б. Бадий нутк, стилистикаси. Самарканд.: 1982. 82.б.

Маматов А.Э. Семантико-стилистикаские особенности , эмоциональнооценочных фразеологических единиц узбекского языка. АКД. -Ташкент. 1988.20 б.

ikki tildagi emotiv birliklarining umumiy va farqli xususiyatlarini tavsiflash;
lingvistik nazariyalar nuqtayi nazaridan turli diskursdagi emotiv birliklarning o'ziga xosliklarini izohlash;

ikki tilning leksik guruhlarini qiyoslash imkonini beradigan stilistik texnika va qoidalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va qoraqalpoq tillaridagi emotsional birliklar tizimi olinadi.

Tadqiqotning predmeti ingliz va qoraqalpoq tillaridagi emotsional birliklarning lingvomadaniy, kognitiv, sintaktik va metaforik voqealanishi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ishning ilmiy maqsad va vazifalarini samarali amalga oshirish uchun quyidagi zamonaviy filologiya metodlari va tahlil usullari kompleks tarzda qo'llanildi: qiyosiy (komparativ) tahlil, deskriptiv (tasviriy) usul, kognitiv tahlil usuli, pragmatik tahlil usuli, diskursiv tahlil usuli, lingvomadaniy tahlil usuli, korpus tahlili elementlari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qoraqalpoq tilida emotsional birliklarning madaniy-ruhiy asosini aks ettiruvchi lingvomadaniy kodlar tahlil qilinib, bu kodlar orqali qoraqalpoq xalqining emotsional dunyoqarashi, ijtimoiy va diniy qadriyatlar bilan bog'liq obrazlar tizimi orqali ochib berilgan;

ingliz va qoraqalpoq tillaridagi emotsional birliklarning tizimli tasnifi ishlab chiqilib, har ikki tilga xos emotsional birliklar asosiy semantik maydonlar (quvonch, qayg'u, g'azab, umid, xavotir va boshqalar) bo'yicha ajratilgan hamda ularning lingvistik ifoda usullari aniqlangan;

emotsional metaforalarning konseptual modellari aniqlanib, tadqiqotda "muhabbat – olov", "g'azab – portlash", "quvonch – yuksaklik" kabi asosiy metaforik modellar har ikki tilda keltirilgan va ularning milliy ongdagi o'ziga xosliklari qiyosiy asoslangan;

o'zaro tarjimada emotsional birliklarni adekvat ifodalash uchun lingvomadaniy tavsiyalar ishlab chiqilib, tarjimashunoslikda emotsional leksikaning milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda tarjima mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari lingvomadaniyatshunoslik, etnografiya, etnologiya, psixologiya kabi sohalar doirasidagi masalani hal etishga xizmat qiladi. Albatta, har bir soha o'zining tadqiqot predmeti va metodlariga ega, o'z o'rnida mazkur ishda lingvistik birliklarning soha doirasidagi xususiyatlari tilshunoslik sohasidagi metodlar orqali o'rganilgan. Bunda turli tillarning emotsional konseptlarini ko'p tarmoqli va lingvomadaniy tahlil qilish, ayniqsa emotsional nominativlik tizimini shakllantirishning lingvistik vositalari o'rganildi. Uning elementlari tavsifi barcha lingvistik shakldagi his-tuyg'ularning paydo bo'lishi, rivojlanishi hamda faoliyatining mohiyatini aniqlash uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega, ya'ni maxsus bir madaniy konseptlarning shakllantiruvchisi bo'lgan noverbal belgilar, ularning his-tuyg'ular psixologiyasi bilan aloqasini ko'rsatuvchi diskurslarda universalligi va idioetnik xususiyatlari orqali berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy tilshunoslikda qo'llanilgan tadqiq usullarining maqsadga muvofiqligi hamda ularda foydalanilgan nazariy ma'lumotlarning ishonchliligi, ilmiy muammoning aniq qo'yilganligi, to'plangan

materiallar tahlilining ilmiy-metodik jihatdan asoslanilganligi, bildirilgan nazariy xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiq qilingan materiallarning ishonchli manbalardan olinganligi, tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatdan ta'minlanilganligi, olingan ilmiy natijalarning tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan dalillanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati keng miqyosdagi lingvistik materiallardan foydalangan holda, turli fan sohalari olimlari tomonidan taqdim etilgan hissiyotlarning tabiatiga oid ayrim gipotezalarning to'g'riligi bir ma'noda tasdiqlanganligi bilan belgilanadi. Xususan, his-tuyg'ular va insonning psixofiziologik holati o'rtasidagi bog'liqlik tasdiqlangan. His-tuyg'ular bilan bog'liq so'zlarning semantik guruhlari tuzilishi haqida bilimlar shakllantirildi. Milliy tillarda his-tuyg'ularni aks ettirishning etnomadaniy xususiyatlari va umuminsoniy xususiyatlari ham aniqlanadi.

Umumiy his-tuyg'ularni, xususan, emotiv birliklarni o'rganish sohasida bir qator muammolarni qo'yish va hal qilish imkonini beradigan keng qamrovli lingvistik materialni olish va tuzishda tadqiqotning amaliy ahamiyati belgilanadi. Tilshunoslikda hali keng qo'llanilmagan tajribalar o'tkazish va ma'lumotlarni qayta ishlash uchun muallif tomonidan ishlab chiqilgan usullar foydali bo'lishi mumkin. Leksik material manbasini tanlash mezonlari tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va qoraqalpoq tillarida emotivlik kategoriyasining metaforik voqelanishiga doir tadqiqotlar asosida:

qoraqalpoq tilida emotsional birliklarning madaniy-ma'naviy asosini aks ettiruvchi lingvomadaniy kodlar tahlil qilinib, bu kodlar orqali qoraqalpoq xalqining emotsional dunyoqarashi, ijtimoiy va diniy qadriyatlar bilan bog'liq obrazlar tizimi haqidagi ilmiy natijalar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017–2020-yillarda bajarilgan “FA-F1-OO5 Qoraqalpoq folklori va adabiyotshunosligini tahlil qilish” mavzusidagi fundamental loyihada qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 14-apreladgi 215/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, folklor matnlaridagi emotsional birliklarning tizimli tasnifi ishlab chiqildi va tadqiqotdagi ma'lumotlar asosida emotsional birliklar quvonch, qayg'u, g'azab, umid, xavotir va boshqa semantik maydonlarga ajratildi;

ingliz va qoraqalpoq tillaridagi emotsional birliklarning tizimli tasnifi ishlab chiqilib, har ikki tilga mos emotsional birliklar asosiy semantik maydonlar (quvonch, qayg'u, g'azab, umid, xavotir va boshqalar) bo'yicha ajratilgan hamda ularning lingvistik ifoda usullari haqidagi ilmiy yangilik O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokanali” “Qoraqalpog'iston” telekanalining qoraqalpoq tilida olib boriladigan “Til bayligi – el bayligi” dasturida va radiokanalning “Tilge itibar – elge itibar” eshittirishlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokanali” 2025-yil 11-apreldagi 05-22/208-son ma'lumotnomasi). Natijada, “Til bayligi – el bayligi” dasturida va radio kanalining “Tilge itibar – elge itibar” eshittirishlarining ssenariylari

emotsional birliklarning tizimli tasnifi va emotsional birliklarning semantik maydonlari asosida qayta ishlangan;

emotsional metaforalarning konseptual modellari aniqlanib, tadqiqotda “muhabbat – olov”, “g‘azab – portlash”, “quvonch – yuksaklik” kabi asosiy metaforik modellar har ikki tilda keltirilgan va ularning milliy ongda qiyosiy xususiyatlari haqidagi ilmiy natijalar Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyi faoliyatida foydalanilgan (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyining 2025-yil 16-apreldagi №01-02/03-87-son ma’lumotnomasi). Natijada, emotsional metaforalarning konseptual modellari (“muhabbat – olov”, “g‘azab – portlash”, “quvonch – yuksaklik”) muzey ekspozitsiyasiga qo‘yiladigan eksponatlar etiketkalarini ingliz tiliga tarjima qilishga xizmat qilgan;

o‘zaro tarjimada emotsional birliklarni adekvat berish uchun lingvomadaniy tavsiyalar ishlab chiqilib, tarjimashunoslikda emotsional leksikaning milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda tarjima mexanizmlari haqidagi ilmiy yangilik V Respublika “Kitobxonlik haftaligi” doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Axborot-kutubxona markazida tashkil etilgan “Yoshlar – millat timsoli, yurt qudrati” mavzusidagi uchrashuvda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Axborot-kutubxona markazi 2025-yil 24-apreldagi № 12-08-04-09/161 son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘zaro tarjimada emotsional birliklarni adekvat berish uchun lingvomadaniy tavsiyalar ishlab chiqilgan, jumladan, tarjimashunoslikda emotsional leksikaning milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda tarjima mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza ko‘rinishida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy xulosalarni nashr qilish tavsiya qilingan xorijiy nashrlarda 4 maqola, mahalliy respublika jurnallarida 5 va boshqa xorijiy va mahalliy nashrlarda 9 maqola joriy qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, ishning umumiy hajmi 139 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga muvofiqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “Emotsional til birliklarining lingvistik va psixologik asoslari” deb nomlanib, unda emotsionallik tushunchasining lingvistik va psixologiyadagi o‘rni, tilning his-tuyg‘uni yetkazishda ahamiyati va barcha til

ko‘rinishida emotiv birliklarning verballashuvi haqida so‘z yuritilgan.

Emotivlik tushunchasi tilshunoslikda emotiv so‘z, so‘z birikmasi yoki nutq birliklarining hissiy ta‘sir kuchi va subyektiv nomlash xususiyati bilan bog‘liq. Emotiv til birliklari orqali insonlar o‘z fikr-tuyg‘ularini ifodalaydi va muloqot jarayonida ta‘sir o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Psixologiyada esa emotivlik insonning ruhiy holati va uning nutqiga ta‘siri sifatida qaraladi. His-tuyg‘ularning til orqali ifodalanishi esa inson ongida amalda bo‘lgan tajriba va dunyoqarash bilan bog‘liq.

Tilshunoslikda emotiv til birliklari odatda quyidagi guruhlarga ajratiladi:

Emotiv so‘zlar: *“ájayıp”, “qáweterli”, “muhabbatli”, “gázepli”* kabi so‘zlar ma‘lum bir hissiy bo‘yoq beradigan ma‘noga ega.

Undov shakllar - *“Qarađım” (“Nuri diydam”), “Dostım” (“Do‘stim”), “Húrmetli” (“Hurmatli”)* kabi so‘zlar nutq jarayonida hissiy ta‘sirni kuchaytiradi.

Ekspressiv sintaktik strukturalar – *“Yađaw, sonday boldima?!”, “Bul ođırı ájayıp!”* kabi strukturalar nutqning ta‘sirchanligini oshiradi.

Bu bo‘limda emotsional birliklarning tilning barcha darajalarida – leksik, sintaktik, fonetik, pragmatik jihatdan ifodalanishi tizimli ko‘rsatilgan. Til nafaqat fikr, balki hissiy harakatlarni ifodalash vositasi sifatida, inson obrazini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Y.D. Apreseyan taklif etgan “til orqali inson obrazi” konsepsiyasi asosida insonning jismoniy, psixologik, intellektual va hissiy holatlari til vositalarida qanday aks etishi tahlil qilinadi.

Bo‘limda emotsiyalarning sabab, turg‘un ifoda, oqibat va tashqi ko‘rinishlar orqali ifodalanish bosqichlari izchil yoritib berilgan. Emotsiyalarni ifodalovchi metafora va metonimiyalarning semantik jihatdan ma‘nolari, shu bilan birga, lingvomadaniy kodlar orqali his-tuyg‘ularni yetkazish usullari o‘rganiladi. Shu bilan birga, tarixiy nuqtayi nazardan ham, filologlar orasida emotsional birliklarning til tizimidagi o‘rni bo‘yicha qarama-qarshi fikrlar (Sh. Balli, E. Sepir, K.Byuler) ilmiy tahlil qilinadi. Bo‘lim zamonaviy gumanistik yondashuvlar – antropotsentrizm va psixolingvistika asosida emotsiyalarning tildagi rolini yangi paradigmalarda doirasida ochib beradi.

Ikkinchi bob “Emotsional birliklarning til aspektlarida ifodalanish asoslari” deb nomlanib, unda emotsiya kategoriyasining fonetik tizimda gavdalanishi, emotivlarning leksik-semantik maydonda kategoriyalashuvi hamda emotsional birliklarning sintaktik va pragmatik tuzilmalarda aks etish xususiyatlari tahlil qilingan.

Turli madaniyatlarda hissiyot kategoriyasini o‘rganishdan oldin uning ifodasini tushunish kerak, bunda e‘tibor “emotsionallik” va “emotivlik” atamalariga qaratiladi. V.I. Shaxovskiyning fikricha, “... bu atamalarni psixologiya va tilshunoslikda qo‘llaniladigan atamalar sifatida ajratib olish mumkin.”¹¹ Ya‘ni, emotsional til birligi semasining sifati bo‘lib, so‘z orqali sezgi yoki emotsiya atalsa, uning mazmunida emotsional belgi ifodalanadi. Emotivlik esa tilshunoslikda emotsionallik kategoriyasini o‘z ichiga qamrab oluvchi sifat hisoblanadi.

Shuning uchun ham emotivlikni gavdalantirishda asosan til birliklarining sistemalardagi xususiyatlari hisobga olinmoqda: fonetik, morfologik, leksik va

¹¹ Shaxovskiy V. I. Lingvisticheskaya teoriya emociy. M., 2008. – C. 17.

sintaktik.

Assotsiativ usul asosida olib borilgan D.A.Romanovning tadqiqotida, olim “emotsional-semantikaning fonetik ko‘rsatkichlar nazariyasi”ni ishlab chiqadi. Bunda alohida tovushning, leksik tahlil va matnga yo‘naltirilgan metod yordamida ularning emotiv semantikasi aniqlangan. Masalan, alohida tovush tahlili uch kategoriyani belgilab bergan:

1) EFM tovushlar: [A], [M’]- quvonch -zavq; [I]- nafrat; [R]- g‘azab-g‘azab;

2) EFM o‘zgartirilgan tovushlar, ya‘ni emotsiya ma‘nolariga bog‘liq guruhga tortish omili: [J], [Z] - qahr-g‘azab + nafrat; [M] - qizish - bezovtalanmoq + quvonch - zavq; [F][F’] - nafrat + nafratlanmoq);

3) EFM betaraf tovushlar: [B’], [Y], [CH].

EFMning leksik qatlamda aniqlanishi, D.A. Romanovning fikricha, maqsadga muvofiq emas. Chunki leksik birlik tarkibidagi tovushlar zanjiri ma‘lum bir EFM tovushlaridan emas, balki neytral tovushlardan ham tashkil topishi mumkin. Bu nazariyani ingliz va qoraqalpoq tillaridagi izohli lug‘atlar asosida sinab ko‘rilganda quyidagi natija kelib chiqadi (Qarang: Jadval 2.1):

2.1-jadval

Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi tovushlarning emotiv fonetik ma‘nolari

Tovush	Sema	EFM
[ey]	<i>uh; when stressed ey</i>	O‘ylamoq, shubhalanish
[bi:]	a designation for a motion picture made on a low budget and meant as the secondary part of a double feature.	ishonmaslik, e‘tiborsizlik
[ɔ]	used as an expression of surprise, pain, annoyance, longing, gladness, etc.	Hayron qolmoq, achinish, yoqtirmoq, qiynalmoq
[A]	Sado bermoq, ovoz chiqarish, ovoz berish, hayratlanish	Hayron qolmoq, hayratlanmoq, shubhalanmoq
[Á]	Odamning ko‘ngil holati, ichki hissiyoti	Hayron qolmoq, hayratlanmoq, hayajonlanmoq
[Y]	Nafratlanish, yomon ko‘rishni ifodalaydi	Nafratlanmoq, ko‘ngli qolmoq, g‘azablanmoq
[O]	Hayratlanganda, quvonganda, xafa bo‘lganda va boshqa ruhiy holatlarda aytiladi.	Hayratlanmoq, hayron qolmoq, quvonmoq, ranjimoq

Izohli lug‘atlar tahlili asosida aytishimiz mumkin, o‘rganilayotgan tillarning har ikkalasida ham barcha tovushlar emotivlikni anglatishi markerlanmagan. Shunday bo‘lsa-da, ularning shu mazmundagi konnotatsiyalarini badiiy asarlarda uchratishimiz mumkin.

— *O, o, o, Allayar!!! Nelerdi esime saldiñ, jora? Eger Maman aganiñ sondağı kewli bolsa, Aqbiyday degen attı esitiwden-aq sózsiz jadıraydı. Quyashtay jadıraydı. Ol qız qalay gózzal, qalay sulıw qız! Sonda ol «bul qızdı alaman» dep edi (T.Qayıpbergenov «Qaraqalpaqnama: Mamanbiy ápsanası»:101).*

In the Two Minutes Hate he could not help sharing in the general delirium, but this sub-human chant- 22 1984 ing of ‘B-B!...B-B!’ always filled him with horror (G.Orwell «1984»:22).

Nutqda hissiyot mazmuni ikki asosiy turga bo‘linadi: hissiy holat va hissiy reaksiya. So‘zlovchining emotsional holati sokin, faol va nofaol bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, emotsional holat notinch, quvonchli, g‘azabli, quvonchli holatlarni tavsiflaydi. Insonning emotsiyasidagi neytral holat gapdagi semantikaning kuchayishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Ammo insonning gapini ta‘sirli yetkazish maqsadi uning nutqida emotsional holatining kuchayishiga turtki bo‘ladi. Bu emotsional holatning kuchayishi gapda intonatsiyaning ko‘p qo‘llanilishiga olib keladi. Gapdagi his-tuyg‘uning ikkinchi turi – so‘zlovchining oldingi gapdagi his-tuyg‘uga munosabatini anglatadi: hayratlanish, gumon, nizo, ehtiyotkorlik va boshqalar. Hissiy reaksiya odatda ma‘lum bir bayonda, aniq bir dialogdagi pozitsiyaga munosabati bilan ifodalanadi. Bu ikki tilning undovlar misoli tahlilini quyidagi jadval orqali ko‘rsatish mumkin (Qarang: jadval 2.2):

2.2 – Jadval

Emotsiyaning gapda turlarga bo‘linishi

Leksik ma‘no	Undovlar	Tavsifi	Emotsiya turi
Quvonch	Ing: Ux! Wow! Yabba! Dabba! Eureka! Yo-ho! Yay! Woohoo! Ha-ha! Hee-hee! Ho-ho! Qq: Uay! Yashshaqay! Ooo!	Ing: excitement, happiness, satisfaction, laughter, amusement, light-hearted, Qq: quwanish, baxit, quwanishli tań qaliw, tabisqa erisiw	Holat
Hayratlanish	Ing: Whoa! I-im! Huh!/? Gee! Imma! Wow! Oh! Qq: Má, saǵan! Oxo! Bay-bay!	Ing: surprise, amazement, disbelief; Qq: yapırmay, hayran bolıw, tańlanıw	Reaksiya
Azob-uqubat	Ing: Ouch! Phooey! Alas! Sigh! Oh no! Qq: Ex! Pax! Way way!	Ing: sorrow, disappointment, despair; Qq: ókiniw, qayǵı, úmitsizlik, sawınıw	Reaksiya
G‘azab	Ing: Darn it! Ugh! Grr! Argh! Qq: Xá, seniy! Ey!	Ing: frustration, anger, annoyance, Qq: uyaltılıw, unamawshılıq, jiyirkeniw yamasa gázep	Reaksiya
Nafrat	Ing: Aw! Yuck! Bah! Ick! Ew! Yuck! Ugh! Qq: Fuw! Ay! Qoy, óydeme!	Ing: disgust, distaste, revulsion, Qq: qáweter, awrıw, kútpegende awırıw, jiyirkeniw	Holat
Hayajon	Ing: D’oh! Baloney! Eek! Yireks! Blimey! Ugh! Fiddle de dee! Oh my! Qq: Uay! Uyattayǵay! Átteń!	Ing: fear, alarm, or shock Qq: Tan` qaliw , shokqa túsiw	Reaksiya

Muloqot jarayonida odamlar doimo his-tuyg‘ularini almashadilar, ularni namoyon qiladilar yoki hodisalarga nisbatan emotsional reaksiya qiladilar. Muvaffaqiyatli suhbat uchun his-tuyg‘ularni to‘g‘ri ifodalashni bilish kerak bo‘ladi, jamiyatda amalda qo‘llanilayotgan milliy nutq me‘yorlariga ko‘ra muloqotda bo‘lish va munosabat bildirish tavsiya etiladi. Oddiy kundalik vaziyatlarda his-tuyg‘ularni ifodalash qobiliyati tilni o‘zlashtirish va bilish darajasini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, ingliz va qoraqalpoq tillarida hissiylik badiiy asarlardan olingan misollarda fonetik darajada ifodalanishi asoslanib, ular alliteratsiya, qofiya, intonatsiya turlarida grafik va tipografik o‘zgarishlardan foydalanish orqali ko‘rsatish bilan amalga oshiriladi. Bu badiiy matnning asosiy ta’sir etuvchi funksiyasidir. Fonetik vositalar ko‘pincha mualliflar tomonidan ijobiy yoki salbiy munosabat bildirish maqsadida qo‘llaniladi, suhbat obyektiga kesatish yoki o‘quvchilar e’tiborini ma’lum bir mavzuga jalb qilish (qofiya va jarangsizlikdan foydalanish) uchun ishlatiladi. Emotiv birliklarni alohida ingliz va qoraqalpoq tillaridagi publitsistik materiallar asosida, ularni leksik-semantik va sintaktik jihatdan o‘rganishni tavsiya etamiz. Chunki, emotsional birliklarning publitsistik materiallarning sarlavhalarida turli mazmunda qo‘llanishiga tadqiqot davomida duch keldik.

“Emotsiya” leksik-semantik guruhini yaratish uchun kichik guruhlarini asosiy hissiy holatlarga qarab ajratish mumkin: quvonch, qayg‘u, xavotir, vahima va boshqalar. His-tuyg‘ulardan foydalanib “hissiyot” mavzusida leksik-semantik guruh yaratishda turli emotsional holatlarni ifodalovchi emotsional undovlar tanlanadi, bunda ular his-tuyg‘ularga asoslanib ajratiladi va har bir guruhdagi his-tuyg‘ularning tavsifi bilan to‘ldiriladi. Har bir kichik guruhga tegishli so‘zlarni o‘z ichiga oladi, masalan: *quvonch – o‘yin-kulgi, baxt, zavq; qayg‘u – qayg‘u, umidsizlik, tushkunlik va boshqalar* (Qarang: jadval 2.2.1):

2.2.1 – Jadval

Undov emotivlarning leksik-semantik guruhi

Leksik ma’no	Undovlar	Tavsifi
Quvonch	Yay! Wow! Yabba! Dabba! Eureka! Yo- ho! Woohoo! Yippee! Yashshaqay! Ux! Way! Oohoo!	excitement, happiness, satisfaction, laughter, amusement, light-hearted, quwanish, baxit, quwanshli tan` qaliw, tabisqa erisiw
Hayratlanish	Huh!? Oxo! Bay-bay! Má, sağan! I-im! Huh!? Gee! Imma! Wow! Oh! Whoa!	surprise, amazement, disbelief, yapirmay, hayran boliw, tan` laniw
Azob-uqubat	Ex! Pax! Ouch! Phooey! Alas! Sigh! Oh no!	sorrow, disappointment, despair, o`kiniw, qayg`i, umitsizlik, sawiniu
G‘azab	Há, seniy! Darn it! Ugh! Grr! Arg!	frustration, anger, annoyance, izalaniw, unamawshiliq, jiyirkeniu yamasa g`azep.
Nafrat	Fuu! Ay! Qoy, óydeme! Aw! Yuck! Bah! Ick! Ew! Yuck! Ugh!	disgust, distaste, revulsion, qaweter, auriu, kutpegende auriu, jiyirkeniu
Hayajon	Way! Uyattaygay! Átteñ! D’oh! Baloney! Eek! Yireks! Blimey! Ugh! Fiddle de dee! Oh my!	fear, alarm, or shock

Maydon nazariyasi leksik qatlamning tizimli shakllanishiga yordam beruvchi jarayon bo‘lib, bunda yuqorida aytib o‘tilgan, ma’lum bir mavzuviy va semantik mazmun doirasida jamlangan so‘zlar to‘plami keltiriladi. Albatta, bu jarayonni amalga oshirish uchun bir necha bosqichlar bosib o‘tiladi, bu bosqichlar ilmiy faoliyat mavzusi asosida tavsiflanadi: 1) maydonni qamrab oluvchi tushuncha yoki mavzuni

aniqlash (emotsiya, kuch, ona, muhabbat va h.k.); 2) mavzuga oid soʻzlarni toʻplash, bunda eʼtiborni oʻsha tushuncha yoki mavzu bilan bogʻliq soʻzlar, ularning sinonimlari, antonimlari, soʻz birikmalari, frazeologik birliklar, funksiyasi, sifati, qismlari kabi xususiyatlari bilan bogʻliq birliklar. Bunda lugʻatlar, ensiklopediyalar, tezaurus va boshqa manbalardan foydalaniladi; 3) toʻplangan soʻzlarni tahlil qilish va tasniflash bosqichi; 4) leksik-semantik maydon strukturasi yaratish (diagramma, jadval, rasm va h.k.); 5) leksik-semantik maydon tavsifi (markaziy tushuncha bilan chegaralarda joylashgan soʻzlarning bogʻlanishi tahlil qilinadi); 6) tayanch soʻzlarga aniq matnlardan misollar keltirish. Yaʼni ketma-ketlikda olib borilgan bu bosqich maʼlum bir mavzu atrofidagi soʻzlarning tizimlashuviga va har bir madaniyat xususiyatlarini chuqur anglashga yordam beradi.

'Well!' thought Alice to herself. 'After such a fall as this, I shall think nothing of tumbling down-stairs! (10-bet)

'Ugh!' said the Lory, with a shiver (25-bet).

'Oh dear! Oh dear! I shall be too late!' (when she thought it over afterwards, it occurred to her that she ought to have wondered at this, but at the time it all seemed quite natural) (9-bet);

LEWIS CARROLL *"Alice's Adventures in Wonderland and Through the Looking-Glass and what Alice found there"*

Maydon nazariyasi butun leksik sistemaning tartibga solinishini koʻrsatadi. Y.D. Апресянning soʻzlariga koʻra, semantik maydon uning tarkibiga kiruvchi komponentlar bilan kengayish yoki torayish tavsifiga ega boʻlib, buning asosiy sababi mazmunga ega boʻlgan komponent baribir boshqa semantik maydonlar bilan aloqada hisoblanadi. Shu bois ham, tilning semantik maydoni uzluksiz boʻlib chiqadi. Semantik maydonlar ochiq va qayta-qayta kesishishi mumkin boʻlgan semantik guruhlardan tashkil topadi, albatta ularning har biri oʻzaro aloqador, bir-birini aks ettiradi, jarayonlar ulanadi va gʻoyalar olamini gavdalantiradi. Mazkur guruhlar bir-biridan uzoqda boʻlishlariga qaramay, uzluksiz semantik aloqalar zanjiri orqali bogʻlanadilar.¹²

Pragmatik strukturalarda esa emotsional birliklar aloqa kontekstida, shaxslararo kommunikatsiyaning maqsad va sharoitlarida namoyon boʻladi. Bu darajada his-tuygʻu, holat, ijtimoiy maqom, madaniy kod va kommunikativ niyat uzviy bogʻliq boʻladi. Pragmatika emotsiyalarning nutqiy aktlar (soʻrash, buyruq, istak, vaʼda), nutqiy vazifalar (axborot almashish, baholash, taʼsir oʻtkazish) hamda intonatsiya, pauza va temp orqali ifodalanishini oʻrganadi. Pragmatik yondashuv doirasida emotsional birliklar nafaqat til tizimining vositasi sifatida, balki insonning ruhiy holati, ijtimoiy mavqeyi va madaniy kompetensiyasini ifodalovchi kompleks belgilar tizimi sifatida tilga olinadi.

Sintaktik strukturalarda emotsionallikning ifodasi, struktural shakllarda koʻrinadigan boʻladi, bunda hissiy holat faqat tildagi grammatik meʼyorlar orqali emas, balki nutq strukturasi ijtimoiy va madaniy kontekstlari bilan uygʻunlashgan tarzda aks ettirilishiga xizmat qiladi:

¹² Апресян Ю.Д. Избранные труды: В 2-х т. Лексическая семантика / Ю.Д. Апресян.-М.: Школа «Языки русской культуры», 1995. - 472 с.

• Undov gaplar: “Way!”, “Al, qáne edi!”, “Ax, júregim!” kabi strukturalar hissiy holatning bevosita ifodasi hisoblanadi. L.K. Parsiyeva (2009) ta’kidlaganidek, bu kabi birliklar ko‘pincha interfaol (ya’ni, bevosita hissiyotni ifodalashga yo‘naltirilgan) xarakterga ega bo‘ladi.

• Ritorik so‘roqlar va takrorlash – bu shakllar sintaktik jihatdan sodda gaplar ko‘rinishida bo‘lsa-da, yuksak emotsional ma’no-mazmun bilan ajralib turadi: “Men soni etiwim kerekpe, rasta ba?”.

• Sintaktik inversiyalar – ya’ni, odatdagi so‘z tartibining o‘zgarishi orqali urg‘u berish, masalan: “*Ketti ol, júregimdi alip ketti...*”.

• Elliptik gaplar – hissiy holatni kuchaytirishga xizmat qiladi: “*Sunday... Men... Men hátte sóz tapa almay atirman*”.

• Qo‘shma gaplar va qisqa dialoglar – ayniqsa badiiy adabiyotda dialog yordamida emotsiyalarni ifodalash ko‘p uchraydi. Masalan: “*Senba bul? - dedi ol qaltirap*”.

Pragmatik jihatdan emotsiyalarni ifodalash kommunikatsiya kontekstida yuzaga keladi. Bunda zaruriy jihat – intonatsion va ijtimoiy signallarni aniqlash, kommunikativ niyat va nutq vazifasi orqali emotsional ma’noni anglash hisoblanadi. Masalan, gapdagi pauza, talaffuzdagi past ton yoki so‘zlovchining yuz ifodasi, tana harakati emotsiyani kuchaytiruvchi pragmatik komponentlar sifatida ishtirok etadi. Gapdagi “*Sen, ketip baratirsańba?!?*” (“Sen ketib boryapsanmi?!?”) kabi oddiy sintaktik birlik, intonatsiya va kontekstga qarab hayron qolish, xavotir yoki hatto ogohlantirish ma’nolarini olishi mumkin. Berilgan misol emotsional boylikni ifodalovchi oddiy sintaktik birlik bo‘lib, uning ma’no talqini asosan intonatsiya va kontekstga bog‘liq. Mazkur gap strukturasi ko‘ra oddiy so‘roq gap shaklida bo‘lsa-da, emotsional tus olishining bir necha sababi bor:

Vahima: Agar gapda urg‘u “sen” so‘ziga tushsa va tovushlar bog‘lanishi ko‘tarinki bo‘lsa, bu holat kutilmagan vaziyatga javob sifatida vahimani anglatadi.

> Masalan: Kimdir odatda hech qachon kechki payt tashqariga chiqmaydigan bo‘lsa, “*Sen ketip baratirsańba?!?*” – bu o‘rinda “*yağaw senba?!?*” degan mazmunda hayron qoladi.

Xavotir: Agar intonatsiya yumshoq, tushkun holatda bo‘lsa, bu holat xavotir yoki bezovtalikni anglatadi.

> Masalan: Qandaydir bir yaqin inson ketayotgan va bu to‘satdan, noqulay vaqtda bo‘lsa, “*Sen ketip baratirsańba?!?*” – ya’ni “*nege tap házir, nege ketip baratirsań?*” degan xavotirli ma’no mavjud.

Ogohlantirish / g‘azab: Agar tovushlar muvofiqligi baland, keskin va pauzalar bilan aytilsa, bu gap ogohlantirish yoki norozilikni bildirishi mumkin.

> Masalan: Kingadir ruxsatsiz o‘rnidan turib ketayotganda aytiladi, “*Sen ketip baratirsańba?!?*” deganda, “*Kim sağan ruxsat berdi??*” degan ma’no yashiringan bo‘ladi.

Bu misol orqali tilning pragmatik va intonatsion xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Ya’ni, bir xil sintaktik struktura turli emotsional ma’nolarni anglatishi mumkin. Shu sababli, emotsional birliklarni tahlil qilishda kontekst, intonatsiya, kommunikantlarning ishtiroki kabi omillarni e’tiborga olish zarur. Demak, tilshunoslikda emotivlik pragmatikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, emotsional birliklarning sintaktik va pragmatik ifodasi tildagi emotsionallikning yuqori darajadagi, ko‘p qatlamli ko‘rinishi bo‘lib hisoblanadi. Sintaktik strukturalarda ular insonning ruhiy holatini, subyektiv bahosini va ichki his-tuyg‘ularini grammatik qurilmalar – undov gaplar, ritorik so‘roq gaplar, inversiyalar, takrorlar va elliptik tuzilmalar orqali aks ettiradi. Bu tuzilmalar nafaqat mantiqiy, balki uslubiy va ekspressiv vazifalarni ham bajaradi. Pragmatik darajada esa emotsional birliklar aloqa konteksti, nutq vazifasi, kommunikativ maqsad, intonatsiya, pauza va shaxslararo ijtimoiy munosabatlar yordamida shakllanadi.

Ishning “Ingliz va qoraqalpoq tillarida emotivlik kategoriyasining metaforik ifodalanishi” nomli uchinchi bobida ingliz va qoraqalpoq tillarida interjeksiya orqali hissiylikning metaforik ifodalanishi, emotiv leksik birliklarning metaforik ma’nolari hamda emotiv metaforalarning matn va diskursda aks etishi masalalari tadqiq etilgan.

Metaforalar hissiyotlarni ifodalashda keng qo‘llaniladi va ularning shakllanishi madaniyat hamda ijtimoiy hayot bilan bog‘liq. Ingliz va qoraqalpoq tillarida emotsiyalar bilan bog‘liq quyidagi asosiy metaforik modellar uchraydi:

1. “Yurak – hissiyot markazi” metaforasi:

Ingliz tilida: *My heart sank* (Ko‘ngli cho‘kmoq) – qayg‘u yoki umidsizlikni ifodalaydi.

Qoraqalpoq tilida: *Júregim ezildi* – g‘am, og‘irlik hissini anglatadi.

2. “Olov - g‘azab va muhabbat” metaforasi:

Ingliz tilida: *Burning with rage* (G‘azabdan o‘rtanmoqda) – juda qattiq g‘azablanmoq.

Qoraqalpoq tilida: *Kózlerinen ushqin shıqtı* - kuchli g‘azab yoki jahl.

3. “Vazminlik – qayg‘u va tashvish” metaforasi:

Ingliz tilida: *A heavy heart* (Vazmin yurak) – qayg‘uli kayfiyatni ifodalaydi.

Qoraqalpoq tilida: *Júregim tas kayaday boldı* – chuqur g‘am va bezovtalik.

4. “Yuksaklik – quvonch va muvaffaqiyat” metaforasi:

Ingliz tilida: *On cloud nine* (To‘qqizinchi bulutda) – nihoyatda baxtli bo‘lish.

Qoraqalpoq tilida: *Basım kókke jetti* – yuksak baxt hissi.

Ingliz va qoraqalpoq tillarida hissiyotlarning metaforik ifodalanishi turli madaniy xususiyatlarga asoslangan. Ingliz tilida metaforalar ko‘pincha individual tajribalarni anglatadi, qoraqalpoq tilida ular ko‘proq jamoaviy dunyoqarash bilan bog‘liq. Masalan, yurak metaforasi ikki tilda ham qo‘llanilsa-da, qoraqalpoq tilida yurak shaxsiy fikr-tuyg‘ulardan tashqari, jamiyat va atrof-muhit bilan bog‘liq ma’nolarni ham o‘z ichiga oladi.

Undov so‘zlarning tasnifiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u ko‘proq ovoz reflekslarining rivojlangan tizimi asosida ajratiladi. Undovlar tarkibiga turli ekspressiv bo‘yoq bilan aytiladigan undov so‘zlar kiradi, ya’ni undovlar, buyruq, onomatopik so‘zlar. Bu tasnifga qo‘shimcha undov so‘zlar, A.Arno va K.Lanslolar, fe’llar bilan bir qatorda bog‘lovchilarning ifodalanish holatini rivojlantirish uchun ham qo‘llaniladi, deb hisoblaydilar¹³. Biroq, maxsus undovlarning kelib chiqish nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lganligi bois, ularni instinktiv qichqiriqlardan farqlash shart. Chunki undovlar tabiiy tovush hosilalarining shartli belgisi hisoblanadi. Bunday holatda

¹³ Арно А., Лансло К. Грамматика общая и рациональная Пор-Рояля: Пер. с франц., коммент. и послесл. Н. Ю. Бокадоровой / Общ. ред. и вступ. ст. Ю. М. Степанова.— М.: Прогресс, 1990.— С. 104.

“tabiiy tovush hosilalari” deb atalgan atama o‘zining nazariy asoslanishini talab etadi. Bu kabi xususiyatlarning yuzaga kelishi, undovlarni tasniflash uchun aniq mezonlari yo‘qligini ko‘rsatadi.

Bunday noaniqliklarga bir misol, ayrim filologlar undovlar qatoriga ingliz tilida “*oh, tut, pooh*”, o‘zbek tilida “*oh, voy, hay*”, qoraqalpoq tilida “*ay, túw, pah*” belgilarini kiritadi. Boshqa tadqiqotchilar esa unga “onomatopik so‘zlarni, ya’ni kamtarlikni ifodalovchi birliklarni kiritmoqdalar:

ing.: How are you?! Good Morning! You know;

o‘zb. Yaxshimisiz?! Kandaysiz?! Nima-chi!;

qq. Anaw ne! Ne qılıp! Qalay?!

Albatta, undovlarning gapdagi ahamiyati qanchalik katta bo‘lmasin ularga bunday maqom berib, so‘z turkumi deb atash mumkin emas. Ular so‘z turkumlarini bir-biridan ajratib turadigan qandaydir bir vazifasi bo‘lishiga qaramasdan boshqa tartibdagi hodisa ekanligi ko‘rinib turibdi. Shu bilan birga, uning morfologiyaga ham aloqasi yo‘q. U nutqning maxsus bir shaklini ifodalaydi: ta’sirli, hissiyotga boy, ba’zan faollikni ifodalovchi mazmunni gavdalantiradi.

Undovlar yuqoridagilar bilan birga quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi: biriktiruvchi: má sağan (mana senga), há degennen (ha degandan), tap sonday (xuddi shunday); turg‘un so‘z birikmasi va frazeologik birliklarni yasovchi: Allağa shúkir (Allohga shukur), Qudayğa shúkir (Xudoga shukur); bir lahzalik ish yoki harakatni bildiruvchilar: bań, tap, jılp, paq, uwf; onomatopik so‘zlar anglatuvchi: pır-pır, pıs-pıs, tań-tuń, miyaau, bi-biyip.

Ko‘pchilik hollarda undovlar ko‘plik kategoriyasida kelganda ot so‘z turkumi vazifasini bajaradi. Undovlarni to‘ldirishning asosiy manbayi baholovchi va sifatlovchi otlar (xavotir, qo‘rqinch, muammo), shuningdek fe’llar hisoblanadi (kel, ol, bor, tur, ma).

– *Jeńge, siz basqa oyğa barman, – dedi soń kúni menen xámmesin únsiz gúzetip turğan biziń xayalar (etiket, athq);*

– *Oxo! Biziń apamniń otırısın qara? – dedi qusharın kerip (emocional, dáneker);*

– *I-im! – dedi Nursultıw dárhal biykarlap. – Men seksenge shıkpayman (emocional, baylanıstırıwshı);*

– *Qoy, óydeme! Qaytıp aldım de! (májbúrlwshı, etiket, feyil)¹⁴.*

Qoraqalpoq tilidan olingan misollardagi -ıp, -ip, -p shaklidagi ravishdoshlar ot, taqlid va undov so‘zlar bilan ma’no jihatdan birikib, ularning hammasi fe’l so‘z birikmalarining tarkibida tobe komponent vazifasini bajarib, o‘zidan keyingi harakat ma’nosini bildiruvchi va tobelovchi komponent bo‘lib keladigan fe’l so‘zlar bilan bog‘lanadi. Bunday hollarda -ıp/-ip, -p shakli to‘liq ma’nosini yoki ko‘makchi vazifasidagi ravishdoshlarni, taqlid va undov so‘zlarni tobelantiruvchi komponent sifatidagi fe’l so‘z bilan bog‘lashda grammatik qism vazifasini bajaradi.

Ta’kidlash joizki, emotsiya atamasining universal ilmiy ta’rifi to‘liq shakllanmagan, chunki bu hodisaning tuzilishi, uning tipologiyasi va tizimi zamonaviy ilmiy paradigma kognitiv-gnoseologik yondashuv doirasida to‘liq

¹⁴Nızanov M. Ashıq bolmağan kim bar (roman). Nókis. “Bilim” baspası, 2013 jıl. – 188 b.

o‘rganilmagan. Falsafada “emotsiya” deganda, qisqa muddatli his-tuyg‘ular (quvonch, qayg‘u, qo‘rquv, uyalish va h.k.) va davomli his-tuyg‘ular (sevgi, qayg‘u, g‘azab va h.k.) tushuniladi. Odamlar hayotini tartibga solishda emotsiyalar verbal darajada namoyon bo‘ladigan psixofiziologik holatning ko‘rsatkichi sifatida muhim o‘rin tutadi. Bu psixofiziologik ko‘rsatkichlarni 3200 bet hajmidagi ingliz va qoraqalpoq tillaridagi badiiy asarlardan tanlab olindi, shu bilan birga emotsiyalarning turlariga qarab tasniflandi [Qarang: Jadval 3.1].

3.1-jadval

Emotsiyada psixofiziologik holatlarining verballashuv ko‘rsatkichlari

Emotsiya turlari	Undovlar	Ingliz tilida	Qoraqalpoq tilida
Quvonch	Way! Uh! Wow! Yabba! Dabba! Eureka!	21	15
Hayrat	Oxo! Bay-bay! Má, sa‘gan! I-im! Huh!? Gee! Imma!	16	13
Azob-uqubat	Eh! Pah! Ouch! Phooey!	9	11
G‘azab	Xá, seniy! Darn it!	5	7
Naftrat	Fuw! Ay! Qoy, óydeme! Aw! Yuck! Bah! Ick!	11	9
Hayajon	Uay! Uyatta‘gay! D‘oh! Baloney! Eek! Yireks! Blimey! Ugh! Fiddle de dee!	19	22

Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi emotsiyalarning verballashuv holati ularning so‘z turkumlari bilan birgalashib kelish xususiyati va konseptual asoslari bilan bog‘liqdir. Zotan, ingliz tilidagi undovlar alohida boshqa so‘zlar bilan birikmasligi ko‘p uchraydigan holat ekanligi aniqlandi. Qoraqalpoq tilida esa ayrim hollarda fe‘l so‘zlar bilan birikib kelishi va aniq qo‘shimchalarning qo‘shilishi bilan ajralib turishi ko‘zga tashlanadi.

Ingliz tilshunosligida emotsiya tili yoki leksikon foydalanuvchilarning obyekt yoki voqealar bilan emotsional aloqasini aks ettiradi. U kuchli his-tuyg‘ularni uyg‘otadigan “horror”, “bliss” va “shame” kabi emotsional rangga ega bo‘lgan so‘zlarni o‘z ichiga oladi, “villain” yoki “hero” kabi atamalar madaniy kontekstdan emotsional salmoqni oladi. “Lovely” yoki “awful” kabi baho beruvchi so‘zlar shaxsiy qaror yoki bahoni anglatadi. Bundan tashqari, emotsional xususiyatlar affikslar orqali morfologik tarzda qo‘shilishi mumkin, masalan, diminutivlar (“dearie”, “puppy”), yumshoq istehzo uchun “-ish” (“foolish”) kabi suffikslar yoki kamsituvchi nomlar (“brat”, “wretch”).

